

"MUSTAQILLIKNING 35 YILLIGI MUNOSABATI BILAN AKSIYA"

AKSIYA QOIDALARI

I. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1 Ushbu Aksiya qoidalar (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) ommaviy oferta hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “**Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan aksiya**”ni (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) o‘tkazish shartlari, ishtirok etish tartibi, ishtirokchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablar, ularni aniqlash mezonlari, sovrinlarni topshirish tartibi hamda ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan boshqa shartlarni belgilaydi.

Mazkur Qoidalar bilan tanishish va Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining mazkur ommaviy ofertani to‘liq qabul qilganligini (aksept qilganligini) anglatadi.

- 1.2 Aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi.
- 1.3 Aksiyada ishtirok etish majburiy emas.
- 1.4 Aksiya jismoniy shaxslarga mo‘ljallangan Bank kredit mahsulotlarini ommalashtirish, mijozlarni rag‘batlantirish hamda mazkur Qoidalar muvofiq sovrinlarni taqdim etish maqsadida o‘tkaziladi.

⌚ Tashkilotchining aloqa ma’lumotlari:

Tashkilotchi: "Biznesni rivojlantirish banki" ATB

Telefon raqami: +998 (71) 150-00-55;

Elektron pochta manzili: info@brb.uz

Rasmiy veb-sayt: www.brb.uz

Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, A.Navoiy ko‘chasi, 18A-uy.

- 1.5 Aksiya tashkilotchi tomonidan 2026-yil 1-avgustdan 2026-yil 30-dekabrgacha quyidagi bosqichlarda Bankning ipoteka, avtokredit, tijorat mikroqarzi va ta’lim krediti mahsulotlari bo‘yicha kredit shartnomalarini rasmiylashtirgan jismoniy shaxslar o‘rtasida o‘tkaziladi.
- 1.6 Aksiya doirasida beriladigan sovrin to‘lov yoki moddiy yordam hisoblanmaydi.

- 1.7 Aksiya 2026-yil 1-avgustdan 2026-yil 30-dekabrigacha (keyingi o‘rinlarda – Aksiya davri) o‘tkaziladi.
- 1.8 Aksiya 5 (besh) turda o‘tkaziladi:
- 1-tur – 2026-yil 1-avgustdan 2026-yil 31-avgustgacha;
 - 2-tur – 2026-yil 1-sentyabridan 2026-yil 30-sentyabrigacha;
 - 3-tur – 2026-yil 1-oktyabridan 2026-yil 31-oktyabrigacha;
 - 4-tur – 2026-yil 1-noyabridan 2026-yil 30-noyabrigacha;
 - 5-tur – 2026-yil 1-dekabridan 2026-yil 30-dekabrigacha;
- 1.9 Aksiya davri Tashkilotchi tomonidan qabul qilingan qaror asosida uzaytirilishi mumkin. Aksiya davri uzaytirilganda, Ishtirokchilar Tashkilotchi tomonidan qo‘shimcha ravishda xabardor qilinadi.
- 1.10 Har bir g‘olibga 5 000 000 (besh million) so‘m pul mablag‘i sovrin sifatida beriladi. Yutuq Bank tomonidan “Mustaqillik” bayrami uchun maxsus chiqariladigan individual dizayndagi kobrend kartasiga o‘tkazib beriladi.
- 1.11 Aksiyada bank xodimlarining ishtiroki inobatga olinmaydi.

II. AKSIYA SOVRIN JAMG‘ARMASI

- 2.1 Aksiya sovrin jamg‘armasi 175 000 000 (bir yuz yetmish besh million) so‘m miqdorida shakllantiriladi va quyidagicha bo‘linadi :

1-tur yakuni bo‘yicha 7 ta ishtirokchiga			
Kredit turi	Soni	Summasi	Jami summasi
Ipoteka	3	5 000 000,0	15 000 000,0
Avtokredit	2	5 000 000,0	10 000 000,0
Mikroqarz	1	5 000 000,0	5 000 000,0
Ta’lim	1	5 000 000,0	5 000 000,0
Jami	35 000 000,0		
2-tur yakuni bo‘yicha 7 ta ishtirokchiga			
Ipoteka	3	5 000 000,0	15 000 000,0
Avtokredit	2	5 000 000,0	10 000 000,0
Mikroqarz	1	5 000 000,0	5 000 000,0
Ta’lim	1	5 000 000,0	5 000 000,0

Jami	35 000 000,0		
3-tur yakuni bo'yicha 7 ta ishtirokchiga			
Ipoteka	3	5 000 000,0	15 000 000,0
Avtokredit	2	5 000 000,0	10 000 000,0
Mikroqarz	1	5 000 000,0	5 000 000,0
Ta'lim	1	5 000 000,0	5 000 000,0
Jami	35 000 000,0		
4-tur yakuni bo'yicha 7 ta ishtirokchiga			
Ipoteka	3	5 000 000,0	15 000 000,0
Avtokredit	2	5 000 000,0	10 000 000,0
Mikroqarz	1	5 000 000,0	5 000 000,0
Ta'lim	1	5 000 000,0	5 000 000,0
Jami	35 000 000,0		
5-tur yakuni bo'yicha 7 ta ishtirokchiga			
Ipoteka	3	5 000 000,0	15 000 000,0
Avtokredit	2	5 000 000,0	10 000 000,0
Mikroqarz	1	5 000 000,0	5 000 000,0
Ta'lim	1	5 000 000,0	5 000 000,0
Jami	35 000 000,0		

2.2 Tashkilotchi Aksiya sovrin jamg'armasini o'zgartirish, jumladan, sovrinlar soni, to'plami, turi va boshqa xususiyatlarini o'zgartirish hamda ushbu Qoidalarga kiritilmagan boshqa Sovrinlarni Aksiyaga qo'shish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Mazkur o'zgartirishlar Aksiya davrida qonunchilik talablariga rioya qilgan holda Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

2.3 Sovrin jamg'armasini natura ko'rinishida pul ekvivalenti yoki boshqa natura sovrinlarga almashtirish ishtirokchi/g'olib/sertifikat egasi istagiga ko'ra ko'rib chiqilmaydi va amalga oshirilmaydi.

2.4 Agar g'olib sovrinni olishni rad etgan taqdirda sovrin ungan keyingi yaxshi natija qayd etgan Ishtirokchiga beriladi.

III. AKSIYANI O‘TKAZISH TARTIBI

3.1 Aksiya ishtirokchisi — aksiyaning har bir belgilangan davrida yuqorida ko‘rsatilgan kreditlardan foydalangan Bank mijozi.

3.2 G‘oliblarni aniqlash tartibi:

3.2.1 Aksiya joriy davrining g‘oliblari tasodifiy raqamlar generatori yordamida keyingi oyning 5-sanasiga qadar aniqlanadi.

3.3 Komissiya tarkibi Bankning ichki hujjati bilan tasdiqlanadi.

Aksiya sovrinlarini o‘ynash tartibi, xolisligi va shaffofligini ta’minlash maqsadida komissiya a’zolari quyidagi departamentlardan tuziladi:

- Chakana biznes departamenti
- Marketing departamenti
- Ipoteka biznesini rivojlantirish departamenti.

3.4 G‘oliblar Aksiyaning tegishli bosqichi yakunlangandan so‘ng, keyingi oyning 5-sanasiga qadar Komissiya tomonidan aniqlanadi hamda bankning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e’lon qilinadi.

IV. AKSIYA SOVRINLARINI TOPSHIRISH SHARTLARI VA TARTIBI

4.1. Aksiya G‘oliblarga pul mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va muvofiq ushlanmalar ushlanib qolgan holda tanlov g‘oliblarining Bank tomonidan “Mustaqillik” bayrami uchun maxsus chiqariladigan individual dizayndagi kobrend kartalariga o‘tkazib beriladi.

4.2. Pul mablag‘ini bank kartasiga tushganligi to‘g‘risidagi karta aylanmasi ma’lumoti topshirish – qabul qilish dalolatnomasi o‘rnida qabul qilinadi.

V. AKSIYANING QO‘SHIMCHA SHARTLARI

5.1. Firibgarlik harakatlari, til biriktirish, ma’lumotlarni soxtalashtirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita kelishuvlar aniqlanganda, xoh Tashkilotchi yoki uning vakillari bilan, xoh sovrinni olishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita manfaatdor boshqa shaxslar bilan, xoh bitta ishtirokchi, xoh ishtirokchilar guruhi tomonidan birga ishtirok etish holatlari aniqlansa, Tashkilotchi bir tomonlama tarzda yutuqli o‘yin natijalarini bekor qilish va Aksiya g‘olibini qayta aniqlash huquqiga ega.

5.2. Aksiya Tashkilotchisi ushbu Qoidalar shartlariga bir tomonlama o‘zgartirishlar kiritish yoki Aksiyani muddatidan oldin to‘xtatish huquqiga ega. Bunday holatda o‘zgarishlar kuchga kirishidan kamida 3 (uch) kun oldin Bank veb-saytida e’lon qilinishi shart.

5.3. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisining har qanday xatolari natijasida yuzaga kelgan har qanday oqibatlar, shu jumladan (boshqa holatlardan tashqari) yetkazilgan zararlar uchun javobgar emas.

- 5.4. Tashkilotchi har qanday vaqtda Aksiyadagi firibgarlikning oldini olish uchun qo'shimcha texnik cheklovlarni joriy qilish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ishtirokchining har qanday vijdotsiz harakati aniqlansa, natijalari bekor qilinadi va ishtirokchi Aksiyadan chetlashtiriladi.
- 5.5. Tashkilotchi o'zida mavjud texnik imkoniyatlar, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalaridagi talablarni inobatga olgan holda, Aksiyada ishtirok etish vijdonliligini mustaqil ravishda baholaydi.
- 5.6. Mazkur Aksiya bo'yicha yuzaga keladigan barcha nizolar, avvalo, muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi.
- 5.7. Ushbu Qoidalariga kiritilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.